
RISHTONDA „ONALARGA EHTIROM" FESTIVALINING TUMAN BOSQICHI O'TKAZILDI

Rishton tumanidagi «Shinam» tantanalar saroyida „Onalarga ehtirom" festivalining tuman bosqichi o'tkazildi. Tadbirga xalq xo'jaligining turli jabhalarida fidokorona mehnat qilgan, mo'min-qobil farzandlar tarbiyalab, elga qo'shgan onaxonlar, ilg'or xotin-qizlar taklif etildilar. Tuman hokimi o'rinbosari M. Bekmirzaeva viloyat hokimi Xayrullo Bozorov tashabbusi bilan o'tkazilayotgan mazkur festival haqida gapirib, ishtirokchilarni samimiy qutladi.

Festival tuman bosqichida "Eng yaxshi sportchilar sulolasi onasi", "Salomatlik himoyachisi", "Eng yaxshi tadbirkorlar oilasi", "Yuz bilan yuzlashgan ona", "Eng yaxshi sohibkorlar oilasi", „ Ko'p farzandli "Qahramon ona", "Eng yaxshi iqtisodchilar oilasi", "Eng namunali muallima", "Eng matonatli ona", "Eng yaxshi iqtisodchilar sulolasi", "Eng yaxshi olimlar sulolasi", "Eng yaxshi sohibkorlar sulolasi", "Eng yaxshi rassomlar sulolasi", "Eng yaxshi gulchilar sulolasi", "Yurt iftixorlari onasi", "Eng yaxshi o'qituvchilar sulolasi", "Eng yaxshi shifokorlar sulolasi", "Eng yaxshi bag'ishlov she'r", "Eng yaxshi hunarmandlar sulolasi onasi", "Eng namunali qaynona", "Eng yaxshi bloger", "Eng yaxshi alla ijrosi", "Eng yaxshi rasm", "Eng yaxshi ma'rifatli farzandlar tarbiyalayotgan ayol", "Eng yaxshi san'atkorlar sulolasi onasi", "Eng yaxshi xarbiylar sulolasi onasi", "Eng yaxshi tadbirkorlar" sulolasi" kabi nominatsiyalar g'oliblari tuman hokimi faxriy yorlig'i va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar. Tuman madaniyat bo'limi badiiy havaskorlari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar tadbirga yanada fayz kiritdi.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati.

2022-06-13 10:36:18